



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARNING YOZMA NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA INSHONING O'RNI

Xudoyberdiyeva Dildora Nazarjon qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Mazkur ilmiy-metodik maqolada boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda insho mashqlarining o'rni va ahamiyati yoritiladi. Amaldagi ta'lim standartlari va o'quv dasturlari asosida insho orqali yozma nutqni rivojlantirishning hozirgi holati tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik amaliyotda uchraydigan muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: yozma nutq, insho, boshlang'ich ta'lim, nutqiy kompetensiya, metodika.

Аннотация

В данной научно-методической статье рассматривается роль и значение сочинения в развитии письменной речи учащихся начальных классов. На основе действующих образовательных стандартов и учебных программ анализируется современное состояние развития письменной речи посредством сочинений. Также выявляются основные проблемы педагогической практики и предлагаются методические рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: письменная речь, сочинение, начальное образование, речевая компетенция, методика.

Abstract

This scientific and methodological article examines the role and importance of essay writing in developing written speech of primary school pupils. Based on current educational standards and curricula, the present state of developing written



speech through essays is analyzed. In addition, key problems in pedagogical practice are identified and methodological recommendations for their solution are proposed.

Key words: written speech, essay, primary education, speech competence, methodology.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning nutqiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, aynan shu davrda yozma nutqning asosiy ko'nikmalari shakllanadi. Yozma nutq o'quvchining fikrini mustaqil, izchil va mantiqiy ifodalashini ta'minlaydi hamda uning umumiy tafakkur rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinflarda yozma nutqni rivojlantirish masalasi bugungi kunda dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

“Insho” asli arabcha so'z bo'lib, ma'nosi “yaratish”, “bino qilish”, “boshlash” demakdir. Bu so'zning ma'nosi hozircha ancha torayib, asosan, o'quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan ijodiy yozma ish ma'nosida qo'llanadi.”¹

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning mustaqil tuzgan hikoyalari ular uchun sevimli hisoblanadi. Sababi, tuzgan hikoyalari mustaqil va ijodiy xarakterda bo'ladi. Insho yozish jarayonida o'quvchi o'z fikrlarini yozma shaklda bayon etadi, unda fikrlar ketma-ketligi aniq, mantiqan to'g'ri tuzilishiga ahamiyat qaratadi. Insho lug'at boyligini kengaytiradi, grammatik va uslubiy me'yorlarga amal qilishni o'rgatadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko'ra, insho o'quvchining ijodiy fikrlashini rivojlantirish, shaxsiy munosabatini ifodalash va hayotiy tajribasini yozma nutq orqali aks ettirish imkonini beradi.

Amaldagi davlat ta'lim standartlari va boshlang'ich sinf o'quv dasturlarida insho yozishga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq pedagogik amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, insho mashqlari ko'pincha an'anaviy va reproduktiv xarakterda tashkil etilmoqda.

¹ Matchonov S. va boshq. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. (Darslik). -T.: “Ishonchli hamkor”, 2021.-330 bet.



Shuningdek, insho ishlarini baholash jarayonida ko'proq imlo va tinish belgilariga e'tibor qaratilib, mazmun, mantiqiy izchillik va nutqiy boylik yetarli darajada hisobga olinmaydi. Bu holat o'quvchilarning yozma nutqini har tomonlama rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli insho mashqlarini baholash mezonlarini takomillashtirish va mazmuniy jihatlariga ham alohida e'tibor qaratish zarur.

Boshlang'ich sinflarda yozma nutqni insho vositasida rivojlantirish samaradorligini oshirish uchun metodik jarayonni to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Xususan, rasm va kuzatuvlar asosida insho yozdirish, mavzu yuzasidan og'zaki suhbat tashkil etib, so'ng yozma ishga o'tish, tayanch so'z va savollar yordamida matn tuzdirish kabi usullar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi. Bunday yondashuvlar o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish va yozma nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Pedagogik kuzatuvlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, insho mashqlari tizimli va maqsadli tashkil etilganda o'quvchilarning yozma nutqida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi. Ayniqsa, erkin va ijodiy insholar o'quvchilarning shaxsiy fikrini mustaqil ifodalashga imkon yaratib, yozma nutq sifatining oshishiga olib keladi. Shu bois boshlang'ich ta'lim jarayonida insho mashqlaridan samarali va maqsadli foydalanish zarur.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning yozma nutqini insho vositasida rivojlantirish hozirgi ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Insho mashqlarini o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos, mazmunan boy va metodik jihatdan asoslangan holda tashkil etish yozma nutq rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mazkur yo'nalishda olib borilayotgan pedagogik faoliyatni takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti. Boshlang'ich ta'lim. — Toshkent.
2. Matchonov S. va boshq. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. (Darslik). -T.: "Ishonchli hamkor", 2021. 770 bet.